

Po'lat MO'MIN

BO'LADIGAN BOLALAR



МАЖБУРИЙ
НУСXA

TOSHKENT
"YANGI ASR AVLODI"
2012

*Ey, aziz kitobxonim,
Yetganda kuch-imkonim,
Sizga she'rdasta tuzdim,
Qarzimni biroz uzdim.
Ochig'i, ko'pdir qarzim,
(lekin sira yo'q arzim)
Qolmayin deb ginada,
Quduq qazdim ignada.*

*To'qidim qo'shiq, ertak,
Bular emasdir ermak.
Erinmay o'qib chiqing,
Yaxhisi, mag'zin chaqing.
Eslab yursangiz uni,
Kerak bo'lar bir kuni...*

*Etmang deb aslo taqlid,
Yomonni qildim tanqid.
Ko'p o'rinda maqtadim,
Yaxshilikdir maqsadim.*

*Siz bergan zavqdan toshdim,
Kitobim-ko'nglim ochdim.*

SALOM BERGANLAR

Salomat bo'lsin
Salom berganlar.
Ko'ngil bog'idan
Gullar terganlar.
Bobolariga
«Assalom» degan,
Momolariga
«Achchalom» degan,
Tani-joningiz

Sog' bo'lsin, deya,
Ko'nglingiz doim
Chog' bo'lsin, deya
Salom berganlar
Salomat bo'lsin.
Ishlari doim
Alomat bo'lsin
Eng a'lo ular,
Eng dono ular.





QUSHLAR ERTA UYG'ONAR

Har qachon,
Hamma yerda
Qushlar uyg'onar erta.
Shoxdan shoxga sakrashar,
Oldin-keyin sayrashar.
Bunga odat qilishgan.
Foydasini bilishgan.
Nafas olishib chuqur,
Qilishar chug'ur-chug'ur.
Yurishadi qonlari,
Orom olar jonlari.
Sof havo dengiz misol –
Sho'ng'ishadi bermalol.
O'z tilida so'zlashar,
Yaxshilikni ko'zlashar.
Muhtoj bilmay birovga
Otlanishadi ovga.
Aslida shuning uchun
Mashq qilib,
Yig'ib kuchin –
Hasharotni qirishar.
Elga xizmat qilishar.

Qushlarning orasida
Uchrasa ora-sira –
Landovur – dangasasi –
Qotishadi ensasi...
Qo'shishmaydi qatorga,
Chiqarishar beorga.

Qushday uyg'ongan erta
Sog'lomdir hamma yerda.

SEN ERTA TURIB

Tonglar zavqin sur
Sen erta turib.
Puxta reja qur
Sen erta turib.

Havo musaffo,
Artilgan go'yo.
Qilaver huzur
Sen erta turib.

Chiniqsang asta
Bo'lmaysan xasta.
Maydonda yugur
Sen erta turib.

Kutar maktabing,
Ochilar ta'bing.
Shirin xayol sur
Sen erta turib.

Chiqqan quyoshga,
Keksaga, yoshga
Salomga ulgur
Sen erta turib.

**O'QITUVCHI BERDI-DA SALOM,
SUHBATINI ETTIRDI DAVOM:**

– O'qituvchilik
O'rgatish demak,
O'rgatish uchun
O'rganish kerak.
Gul ochilganda,
Gektar va gektar,
Bolari undan
Olar-da nektar, –
So'ng uyasiga
Keltiradi bol.
O'qituvchi ham
Bunga bir misol.
Bilim bolini
Yig'olib men ham
Bolalar bilan
Ko'raman baham.
Chuqur bo'lsin deb
Darsim mazmuni,
Maktab borishdan
Oldin har kuni,
Qarang, o'zim ham
O'rganaman dars.
O'qituvchiga
Bu farz va qarz.
Men ham bu kasbni
Yurakdan sevdim.

Uning fayri-yu,
Qimmatin sezdim.
O'qitganlarim
Har bir sohada:
Zavod, fabrika,
Dalam vohada...
Bittasi olim,
Oshgan o'zimdan,
Ba'zi birlari
Yurar izimdan.
Har bir shogirdim
Berganda salom,
Hurmat-izzatdan
Olaman orom.
Qarang, zo'r quvonch
Qurshab shu mahal,
Ustoz ko'zimga
Ko'rinar har gal.
Shogirdlik o'xshar
Estafetaga,
Bugungi shogird
Ustoz ertaga.
Ulug' istagim
Shundaydir, xolos:
«Har bir o'quvchim
Bo'lolsin ustoz».

QIZALOQLARMIZ

Qizaloqlarmiz,
Eng quvnoqlarmiz.

Rosayam sho'xmiz,
Tinimi yo'qmiz.

Yuramiz quvnab,
Kapalak quvlab.

O'yin tushurmiz,
Qushday uchurmiz.

Xushdir vaqtimiz,
Kulgan baxtimiz.

Qizaloqlarmiz,
Eng quvnoqlarmiz.





- Lituz.com

Elektron kitoblar

**To'liq qismini Shu tugmani
bosish orqali sotib oling!**